

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

QarMII rektori

_____ O.Sh.Bazarov

“ _____ ” _____ 2023

**“IPAKCHILIK ASOSLARI”
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	800000	– Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta‘lim sohasi:	810000	– Qishloq xo‘jaligi
Ta‘lim yo‘nalishi:	60811300	– Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi

Fan (modul) kodi IPASE2204	O'quv yili 2022-2023	Semestr 2	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Tanlov fan	Ta'lim tili o'zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
Ipakchilik asoslari	60	60	120

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – pillachilik sohasining asosiy xom- ashyosi bo'lgan tut daraxtining biologiyasi, morfologiyasi hamda yetishtirish texnologiyasini, ipak qurtining rivojlanish davrlari, urug'ni inkubatsiya qilish, ekologik omillarni ipak qurtining rivojlanishiga ta'siri, qurt boqish agrotexnikasini, pilla o'rash va pillalarni terib topshirish, pillalarga dastlabki ishlov berish, ipak qurti kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari, ipak qurtining asosiy zot va duragaylari, ipakchilikni ilmiy asosida rivojlantirish va pillachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'rgatish.

Fanning vazifasi –tut daraxtining parvarishlash texnologiyasini, ipak qurtidan mo'l va sifatli pilla hosili olishning sir asrorlarini, qurt urug'ini jonlantirish, ekologik omillar : yashash joyi, harorat, namlik, yorug'lik, qurt boqishni mexanizatsiyalashni, kichik va katta yoshdagi qurtlarni boqish, qurt boqish mexanizatsiyani qo'llash, sifatli pilla yetishtirish, pillalarni terish texnologiyasi, navlarga ajratish, pillalarni qabul qilish va g'umbagini o'ldirish, ipak qurti kasalliklari va ularga qarshi kurashish choralari, ipak qurtining naslchiligi va urug' tayyorlash jarayonlar va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari.

Respublikada pillachilik sohasini rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chiqargan farmonlari va qarorlari. Tutchilik va ipakchilik sohasida respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar natijalari, hududiy muammolar va ilm-fan. texnika va texnologiya yutuqlari.

2-mavzu. Pillachilikni rivojlanish tarixi va tarqalishi. Ipak qurti biologiyasi.

Respublikada pillachilik sohasini rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini chiqargan farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari. Bu farmon va qarorlarni ta'lim va ishlab chiqarishdagi ahamiyati. Ipakchilik va tutchilik tarixi va rivojlanish tendensiyalari. Ipakchilik va tutchilik to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Ipakchilik va tutchilik sohasida respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar

natijalari, xududiy muammolar va ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari. Tut ipak qurtining hayvonot olamida tutgan o'рни, rivojlanish davrlari, turlari va yovvoyi ipak qurtlari.

3-mavzu. Ipak qurti embriologiyasi.

Ipak qurtining jinsiy a'zolari va ularni morfologik-fiziologik diffrensiyasi. Ipak qurtini qurtlik, g'umbaklik va kapalaklik davrlaridagi jinsiy farqlari. Jinsiy belgilarini tanada joylashishi tartibi va morfologik ko'rinishi. Embriyoning rivojlanishi va hosil bo'lishi, tuxumini otalanishi. Ovogenez va spermatogenez jarayoni.

4-mavzu. Inkubatoriyani tanlash va tashkil etish.

Inkubatoriyani turlari va tuzilishi. Inkubatoriyani tanlashda bajariladigan ishlar tartibi. Inkubatoriyani ta'mirlash va jixozlash. Inkubatoriyani ishni tashkil etish va inventar hamda asbob-uskunalarini joylashtirish. Inkubatoriyani dizinfeksiya qilish va ipak qurti urug'ini jonlantirishga qo'yishni rejalashtirish.

5-mavzu. Ipak qurti urug'ini jonlantirish usullari. Jonlangan qurtlarni tortish va tarqatish tartibi.

Inkubatsiya to'g'risida tushuncha: urug'ni jonlantirish muddatni aniqlash. Urug'ni jonlantirish (inkubatsiya qilish) tartibi va usullari urug'ni jonlanishiga harorati. Namlik, havo va yorug'likni ta'siri. Jonlangan qurtlarni tortish va tarqatish.

6-mavzu. Tut ipak qurtiga ta'sir etuvchi omillar. Ipak qurtini boqish agrotexnikasi.

Ipak qurtiga ta'sir etuvchi omillar. Ipak qurtiga havo harorati. Namlik, havo va yorug'likni ta'siri. Ipak qurtini oziqalanish maydoni va oziqani ta'siri qurtxonalar va ularni jixozlash qurt boqish uchun kerakli asbob uskunalar. Qurtxonalarni dezinfeksiyalash. Ipak qurtini yoshlari bo'yicha zarur bo'ladigan oziqa miqdori. Bargini tayyorlash va saqlash. Kichik yoshdagi qurtlarni parvarish qilish. Katta yoshlardagi qurtlarni boqish tartibi. Pilla o'rash agrotexnikasi. Pilla terish va topshirish.

7-mavzu. Pilla o'rash, terish, qabul qilish, navlarga ajratish va dastlabki ishlov berish.

Tirik pillalarni qabul qilish va pillalarga dastlabki ishlov berish va bazasining tuzilishi va ishlash tartibi. Tirik pillalarni qabul qilish tartibi. Tirik pillalarni davlat standart bo'yicha navlarga ajratish. Pillalarni g'umbagini o'ldirish usullari. G'umbagi o'ldirilgan pillalarni soyada quritish. quruq pillalarni sotish.

8-mavzu. Ipak qurtining kasalliklari, zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari.

Ipak qurtiga kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar haqida umumiy tushuncha. Tut ipak qurtining bakterial kasalliklari tut ipak qurtining virusli kasalliklari. Tut ipak qurtining zamburug' va pebrina kasalligi. Tut ipak qurti kasalliklari bilan kurash tadbir-choralari. Tut ipak qurtining zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari.

9-mavzu. Ipak qurti seleksiyasi, urug'chiligi.

Ipak qurtining zotlari va liniyalari. Zotlar klassifikatsiyasi. Ipak qurtini naslchilik ishlari. Ipak qurtini jinsini boshqarish. Urug'chilik korxonalarining tuzilishi. Pillalardan

kapalaklarning chiqishi va ular bilan ishlash. Kapalaklarni mikroskopda tekshirish. Takroriy qurt boqish uchun urug' tayyorlash.

10-mavzu. Tut daraxtining tuzilishi va uning sistematikasi.

Tut daraxtining hayotiy davrlari. Tut daraxtining asosiy organlari va ularni tuzilishi. Tut navlari. Tut urug'chiligi Urug'lik tutzorlari barpo etish usullari. Tut urug'ini tayyorlash texnikasi. Sistematikani maqsadi va vazifasi. Tutni umumiy o'simliklar sistemasida tutgan o'rini. Qichitqigullilar tartibiga kiruvchi qayrog'ochsimonlar va qichitqisimonlar oilasi. Tutgullilar oilasi va ta'rifi. Tut avlodini sistematikasi. G.Koydzumi S.Xamada sistemasi. Sistematika kiruvchi turlarning kelib chiqishi va ularni guruppalarga bo'lish.

11-mavzu. Tutni ko'paytirish usullari va ko'chat yetishtirish tartibi. Oziqa beruvchi maxsus tutzorlar tashkil etish va bargidan foydalanish .

Tut daraxtini jinsiy va jinissiz yo'llari bilan ko'paytirish Tutni urug'dan ko'paytirish. Tut ko'chatlari tashkil qilish. Ko'chatzorlardan parvarish qilish. Tut niholchalari yetishtirish. Niholchalarni parvarish qilish. Tut ko'chatlari yetishtirish. Ko'chatlarga shakl berish. Niholchaga ko'chatlarni qazib olish, hillash va jo'natish. Tutzor maydonini tashkil etish, ekish bo'limi. Ko'chatzor bo'limi . Tut ko'chatini o'tkazish va intensiv, buta tutzor tashkil qilish. Buta va baland tanali tutzor tashkil qilish. Tutzorlarni qator oralaridan foydalanishi barg xosilini aniqlash. Tut bargidan foydalanish va saqlash. oziqa beruvchi tutzorlarni tashkil qilish va bargidan foydalanish.

12-mavzu. Tut daraxti kasalliklari, zararkunandalari hamda ularga qarshi kurash choralari.

Tut daraxti kasalliklarini kelib chiqish sabablari va urlarda bakterial kasalliklar. Bakterioz kasalliklar. Zamburug' kasalliklar va virus kasalligi. Yuqumsiz tut daraxti zararkunandalari. So'ruvchi zararkunandalar. Kemiruvchi zararkunandalar. Tut daraxti kasalliklari va zararkunadalariga qarshi kurash choralari.

13-mavzu. Tut seleksiyasi va urug'chiligi.

Seleksiyaning vazifasi va qisqacha ta'rifi. Tut seleksiyasining rivojlanishi. Irsiyat va uning o'zgaruvchanligi. Tut seleksiyasi va boshlang'ich material. Tut daraxti seleksiya usullari. Analitik va sintetik seleksiya. Tanlash. Tanlash usullari. Navlarini sinash.

14-mavzu. Tut navlari va ularni rayonlashtirish.

Respublikamizda ekilayotgan tut navlari. Ularni yetishtirish agrotexnikasi. Xorijdan keltirilgan tut navlari, ularni moslashtirilishi. Hosildor tut ko'chatlariga qo'yiladigan talablar.

15-mavzu. Ozuqa tutzorlari tashkil qilish.

Tutzor maydonini tashkil etish, ekish bo'limi. Ko'chatzor bo'limi. Tutni o'tqazish buta tutzori tashkil qilish. Baland tanali tutzor tashkil qilish. Tutzorlarni qator oralaridan foydalanish.

III. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Ipak qurtining hayvonot olamida tutgan o'rni va rivojlanish davrlari.
2. Ipak qurtining morfologik va anatomik tuzilishi.
3. Tuxumni otalanishi va embrionning hosil bo'lishi.
4. Inkubatoriyani tanlash va tashkil etish.
5. Ipak qurti urug'ini jonlantirish va jonlangan qurtlarini tarqatish tartibi
6. Qurt xonalarini tayyorlash va jihozlash.
7. Ipak qurt boqish agrotexnikasi
8. Pilla terish, qabul qilish va navlarga ajratish.
9. Pillalarni gu'mbagini o'ldirish va quritish.
10. Ipak qurtining kasalliklari va zararkunandalari.
11. Tutlarni urug'idan va vegetativ ko'paytirish usullari.
12. Oziqa beruvchi maxsus tutzorlar tashkil etish va bargidan foydalanish texnologiyasi.
13. Tut daraxtining sistematikasi va tuzilishini o'rganish.
14. Tut urug'ini tayyorlash va ko'karuvchanligini aniqlash.
15. Tut daraxti kasallik va zararkunandalari hamda ularga qarshi kurash choralari

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish, laboratoriya ishlarini bajarishlar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

- 1 Ipak qurtini hayvonot olamida tutgan o'rni va rivojlantirish davrlari.
- 2 Ipak qurtini morfologik va anatomik tuzilishi.
- 3 Ipak qurtining zoologik sistematikasi.
- 4 Tut ipak qurtining ovqat xazm qilish organlari.
- 5 Tut ipak qurtining qon aylanish va nafas olish sistemasi.
- 6 Ipak qurti embriologiyasining tarixiy rivojlanishi.
- 7 Tuxumni hosil bo'lishi va otalanishi
- 8 Tuxumda embrionning hosil bo'lishi va uning rivojlanish bosqichlari
- 9 Tut ipak qurti urug'ini jonlantirishga qo'yish muddatlarini aniqlash usullari.
- 10 Tut ipak qurti boqish agrotexnikasi usullari.
- 11 Takroriy qurt boqish agrotexnikasi.
- 12 Dasta va uning turlari.
- 13 Pilla o'rash biodinamikasi va bosqichlari.

- 14 Pillalarga dastlabki ishlov berish
- 15 Ipak qurtining kasalliklari, zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari.
- 16 Tut ipak qurti zotlari va ularning seleksion tasnifi.
- 17 Ipak qurtida naslchilik ishlari.
- 18 Ipak qurti urug'ini tayorlash usullari.
- 19 Tut daraxtini sistematikasi va geografik tarqalishi.
- 20 Tut daraxtining tuzilishi va organlarining vazifalari.
- 21 Tut daraxtini ko'paytirish usullari va tartibi.
- 22 Tut daraxtini seleksiyasi va uni o'zgaruvchanligi.
- 23 Tut daraxtini urug'chiligi va tut urug'ini tayorlash texnologiyasi.
- 24 Tut daraxtini urug'chiligi va tut urug'ini tayorlash texnologiyasi.
- 25 Tut daraxtini tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi.
- 26 Tut daraxtini tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi.
- 27 Oziqa beruvchi maxsus tutzorlar tashkil etish va parvarishlash.
- 28 Oziqa beruvchi maxsus tutzorlar tashkil etish va parvarishlash.
- 29 Tut daraxtining kasalliklari va zararkunandalari.
- 30 Tut daraxtining kasalliklari va zararkunandalari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mavzularni normativ-xuquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, ilmiy maqola, tezislar tayyorlash, amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimini topish, fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish kabi ko'rinishdagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

“Ipakchilik asoslari” fanini o'rganish jarayonida quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

- qishloq xo'jaligida ipakchilikni o'rni, pilla mahsulotlarini turlari: ipak qurti zotlari, ipak qurtini kelib chiqishi, ipakchilikda naslchilik ishi. ipak qurtini oziqlantirish asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- ipak qurti urug'ini jonlantirish, ipak qurtini rivojlanishiga tashqi muhitni tasiri, ipak qurtini boqish agrotexnikasi, pillalarni terish va ularga dastlabki ishlov berish, ipak qurti kasalliklari, ipak qurti seleksiyasi va urug' tayyorlash ishlarining iqtisodiy samaradorligini bilishi kerak;

- ipak qurtini individual o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini, ipak qurtini mahsuldorligi; pilla ishlab chiqarish texnologiyaisi; ipak qurtini o'sish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ipak qurti mahsuldorligini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- ipak qurtini urug'ini inkubatsiya qilish, ipak qurtini boqish va pilla yetishtirish, ipak qurtini kasalliklarini oldini olish va qarshi kurashish, ipak qurtini yangi zot va duragaylar yaratish ko'nikmalariga ega bulishi kerak;

- “Ipakchilik asoslari ” fani tanlov fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni 3- semestrda o'rganishadi. Xozirgi kunda ipakchilik O'zbekistonda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun ipakchilikda yangi texnologiyalarnu tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Shularni hisobga olgan holda asosan fermer xo'jaliklarida ipakchilikni tubdan yaxshilash, ipakchilikni jadal rivojlantirish muammolari bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Fermer xo'jaliklarida ipak qurtini jonlantirish, boqish pilla o'rash, pillalarni terish va topshirish, pillalarni navlarga ajratish, pillalarga dastlabki ishlov berish, ipak qurti kasalliklari, seleksiyasi urug'chiligi kabi ishlar muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli malakali qishloq xo'jalik mutaxassislarini tayyorlashda "Ipakchilik asoslari" fanini o'zlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

VI.Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

"Ipakchilik asoslari" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlari ko'zda tutilgan.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasi shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Ipakchilik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Exsel” elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Internet tarmog‘idagi rasmiy chorvachilik ko‘rsatkichlaridan foydalanadi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

VII. Talabalar bilimni baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma‘ruza mashg‘ulotlarini ma‘ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma‘ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta‘lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a‘lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimni baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta‘lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Raxmonberdiyev K. Tut daraxti va qalamchalarini ko‘paytirish. Toshkent, “Mehnat” 1997 yil.
2. Abdullayev U. Tutchilik. Toshkent, “Mehnat” 1991 yil.
3. Axmedov N. Murodov S. Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi. Toshkent, 2004 yil.
4. Axmedov N., Murodov S. Ipakchilik asoslari. Toshkent, 1998 yil.
5. Axmedov N., Elmurodova I. Osnovi shelkovodstva. Tashkent, 2007 god.
6. Axmedov N. Murodov S.-- “ Tut ipak qurti biologiyasi”-T: 1995.
7. Raxmonberdiyev K. Muhamedjonova SH. .-- “ Tut seleksiyasi”-T: 1988.
8. Axmedov N., Navruzov S.- Ipak qurti urug‘chiligi. Toshkent, 2014 yil.
9. Axmedov N., Yakubov A - Ipak qurti seleksiyasi. Toshkent, 2014 yil.
10. Axmedov N. Ipak qurti ekologiyasi va boqish agrotexnikasi. Toshkent, 2014 yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Axmedov N. Ipak qurti urug‘ini jonlantirish. Toshkent, 1992 yil.
2. Axmedov N., Murodov S. Tut ipak qurti embriologiyasi. Toshkent, 1997 yil.
3. Abduraxmonov A., Rojdestvenskiy K.M. Ipak qurti naslchiligi va urug‘chiligi. Toshkent, 1991 yil.

Internet saytlari

www.sheki-ipek.com.az

www.mavicanet.com

www.nuron.uz

www.google.ru

www.ziyonet.uz

www.яндекс.ru

Fan dasturi “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasining 2022 yil “___” _____ dagi “___” - sonli, Sanoat texnologiyasi fakulteti Uslubiy komissiyasining 2022 yil “_____” dagi “___”- sonli, yig‘ilishlarida ko‘rib chiqib tasdiqlangan.

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Ilmiy Kengashining 2022 yil “___” _____ dagi ___-son bayoni bilan maqullangan.

Fan/modul uchun ma’sullar:

Saidmurodov.X -“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasida assistenti.

Taqrizchilar:

Ibragimov Z.A.–QMII “QXMS va DIT” kafedrasida dotsenti, q/x.f.n.

Abdiyev A.A. – “TIQXMMI” tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti. q/x.f.n.

